

JIZZAX VILOYATI FLORASIDAGI “QIZIL KITOB” GA KIRITILGAN TURLARINI O’RGANISHDA BOTANIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Sharipova M.H.

e-mail: mohistarasharipova51@gmail.com

ARTICLE INFO.

Kalit so’zlar: Qizil kitob, pedagogik texnologiya, An'anaviy ta’lim, Dars jarayoni.

Annotation:

Hozirgi kunda ishlab chiqarish texnologiyalari tezlik bilan rivojlanayotgan bir davrda ta’lim sohasi ham boshqa ishlab chiqarish muassasalari kabi ilmiy asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, informatsion ma'lumotlarni qo'llagan holda malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan raqobatbardosh, ilmli, bilimli kishilarni Vatan ravnaqi uchun tayyorlab beradigan soha sifatida rivojlanib bormoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o’quv tarbiyaviy jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari bilan ta’minlash uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Kirish

Hozirgi kunda ishlab chiqarish texnologiyalari tezlik bilan rivojlanayotgan bir davrda ta’lim sohasi ham boshqa ishlab chiqarish muassasalari kabi ilmiy asoslangan yangi pedagogik texnologiyalar, informatsion ma'lumotlarni qo'llagan holda malakali mutaxassislar faoliyat yuritadigan raqobatbardosh, ilmli, bilimli kishilarni Vatan ravnaqi uchun tayyorlab beradigan soha sifatida rivojlanib bormoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o’quv tarbiyaviy jarayonini yangi pedagogik texnologiyalari bilan ta’minlash uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida bajariladigan jiddiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

An'anaviy ta’limda o’quvchilar faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etilib, yoppasiga o’qitish nazarda tutilsa, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, extiyoji, motivi hisobga olingan holda shaxsning har tomonlama rivojlanishiga zamin tayyorlanadi. Dars jarayonida an'anaviy metodlar qo’llanilganda, ta’lim oluvchilarning axborotni eslab qolish ko’rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etsa, noan'anaviy metodlar qo’llanilganda esa, ularning axborotlarni o’zlashtirish darajasi yanada ortib boradi. Shu sababli barcha texnologiyalar shaxsga yo’naltirilgan bo‘ladi.

Pedagogik texnologiyalar o’quvchilarga fan asoslarini chuqr o’zlashtirishlariga, o’z ustida mustaqil ishlashiga yordam beradi. Mana shunday pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslardan “Jizzax viloyati florasidagi Qizil kitob ga kiritilgan turlar” misolida keltirib o’tamiz. Buning uchun

quyidagi metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi.

1-topshiriq. O‘zbekiston Respublikasi “Qizil kitobi” ga kiritilgan o‘simlik turlari tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga ko‘ra quyidagi 4 guruhga ajratiladi:

- I _____
- II _____
- III _____
- IV _____

2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

	Viloyatlar	“Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simliklar soni
	Surxondaryo viloyati	112 ta

3-topshiriq. Mustahkamlash uchun topshiriqlar.

1. “Qizil kitob” qanday maqsadda tashkil etiladi?
2. “Qizil kitob” ning vazifasi nimadan iborat?
3. “Qizil kitob” ni tuzishda qanday manbaalardan foydalilanildi?
4. “Qizil kitob” da har bir o‘simlik turi haqida qanday ma’lumotlar berilgan?
5. “Qizil kitob” ga kiritilgan o‘simliklar orasida qaysi oila o‘simliklari alohida o‘rin tutadi va bu oilalarga qanday o‘simliklar kiradi?

4-topshiriq. 6-sinf “Botanika” darsligida berilgan “Qizil kitob”ga kiritilgan barcha o‘simliklarni quyidagi jadvalga kriting.


	ila nomi	“Qizil kitob”ga kiritilgan o‘simliklar soni	“Qizil kitob” ga kiritilgan o‘simliklar nomi

“Tarmoqlash” metodi klaster.

Fikrlarning tarmoqlanishi - bu metod - o‘quvchilarni biron - bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma - ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashga o‘rgatadi.

Bu metod biror mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Quyida biz botanika fanlaridan “kamyob va endemik” turlar mavzusidagi takrorlash – umumlashtirish darsida ifodalanish mumkin bo‘lgan klasterdan namuna sifatida misol keltiramiz: Quyidagi “Qizil kitob” ga kiritilgan turlarning

tarmoqlanishi pedagogik strategiya bo‘lib, u talabalarning “Qizil kitob” ga kiritilgan turlar mavzusini chuqur o‘rganishlariga yordam berish ularni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog‘lagan ketma - ketlikda tarmoqlashni o‘rgatadi. “Qizil kitob” ga kiritilgan turlarning tarmoqlash quyidagicha tashkil etiladi.




Hayolga kelgan har qanday fikr so‘z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi.

1. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikr tugatib, yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi.
2. Darsda imkon boricha fikrlarning o‘zaro bog‘liqligi ketma-ketligini ko‘paytirishga harakat qilish lozim. Bu esa talabalardan fikrlash ketma - ketligini, tafakkur sifatini va izlanuvchanlik, topag‘onlik kabi sifatlarini shakllantiradi.
3. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarini ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish yo‘llari va usullari bilan tanishtiradi.

6-shakl. “Qizil kitob” ga kiritilgan turlarning etnobotanikasi va tarqalishi, haqida ma’lumot.

“Nima uchun” texnologiyasi

“Qizil kitob” ga kiritilgan turlarning “Qizil kitob” ga kiritilganligi va tarqalishi mavzusini mustahkamlash maqsadida “Nima uchun?” topshirig‘i beriladi.



Xulosa qilib aytganda, barcha fanlar qatori botanika darslarida ham ta’lim oluvchilarga ma’lumot berishda ta’limning ilg‘or tajribalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va turli interfaol metodlar asosida ta’lim berish orqali kutilgan natijaga erishish mumkin. Maqolada ko‘rsatilgan texnologiyalar maktablarda botanika darslarida ishlataladigan texnologiyalar bo‘lib, o‘quvchilarning dars jarayoniga faol va ijodiy yondashishiga yordam beradi. Bu kabi texnologiyalar botanika fanining boshqa mavzularida ham qo’llanilishini tavsiya etamiz.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni. -Toshkent: 1997.
2. Pratov O‘, Shamsuvaliyeva L. va boshqalar. “Botanika” -T: “Ta’lim nashriyoti”, 2010. Darslik.
3. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”, 2005.
4. To‘raqulov O.X. Ta’limni boshqarishda maqsadlar ketma-ketligiga erishish. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. -Toshkent: 2001.
5. Kadirova X.N. (2020). Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlanishida o‘qituvchining roli. Science and Education, 1(Special Issue 2).
6. M.H.Axrorova “Jizzax viloyati florasidagi Qizil kitobga kiritilgan turlarining biologiyasi, ekologiyasi, o‘qitish metodikasi”. Jizzax-2020.